

## **TAOM NOMLARINING TARIXI VA ETIMOLOGIYASINING KO'RINISHI**

***Bobojonova Zarina Rashidovna***

*O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi*

Taom – inson va u yashayotgan jamiyat madaniyatining ajralmas qismi. Milliy oshxonaning o‘ziga xos xususiyatlari esa u yoki bu millat madaniyatining qadimiy ildizlarini o‘zida mujassam etgan. Qandaydir taom yoki ichimlik iste’mol qilar ekan, kishi beixtiyor ma’lum bir millat madaniyati bilan muloqotga kirishadi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida ovqat o‘zgani anglash vositasi hisoblanadi. Rus olimi A.I.Kozlovnning fikricha, jamiyatda ovqat “tabiiy” va “madaniy”, “insoniy” va “ilohiy”, “o‘z” hamda “o‘zga” kabi tushunchalar orasida ramziy ma’no kasb etadi. Ba’zan birovning “maqbul” taomdan voz kechishi, uning g‘ayrinsoniy xislati sifatida qabul qilinishi ham mumkin. Umuman olganda, oshxona va taom – “o‘zingniki”ni “o‘zga”dan farqlash, “ular” va “o‘zimiz” oramizdagi chegarani aniqlab olish vositasidir (*Kozlov A.I. Pişa lyudey. – Fryazino: Vek 2, 2005*).

“Taom” tushunchasi inson hayotining turli xil jabhalarida – til, urf-odat, an’ana va madaniyatida namoyon bo‘ladi. Adabiyot esa madaniyatning ushbu ajralmas qismini taqdim etish vositasidir. Taom nomlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida yuz bergen eskirishning mahsuliga aylangan va butunlay iste’moldan chiqib ketgan. Lekin ular til tarixining mulki, xalq o’tmishining yodgorligi sifatida yozma manbalarda saqlanib qolgan.

XVIII-XIX asrlar Yevropa adabiyotida gastronomik mavzuni to‘liq yoritishga o‘tildi. Biroq XI-XII asr qadimiy qo‘lyozmalaridayoq taom va ichimliklar haqidagi badiiy tasvirlar paydo bo‘la boshlagan. Yunon yozuvchisi Ksenofontning uy-ro‘zg‘or yuritish va oila iqtisodi haqidagi “Uy ro‘zg‘or yuritish” kitobida ro‘zg‘orni tashkil etish bilan birga dasturxon oldida o‘zini qanday tutish, ibodat kunlari qanday taomlar tanovul qilish haqida yo‘riqlar keltiriladi (*Entsiklopediya pravoslavnoy kuxni. – N.Novgorod: Izd-vo Bratstva vo imya sv. Aleksandra Nevskogo, 1999*). Ovqatlanish va taom Yevropa adabiyotshunosligida maxsus o‘rganiladigan yo‘nalishdir. Yevropa adabiyotshunoslarning fikricha, taom va tanovul jarayonining badiiy adabiyotda o‘z o‘rni bor. Zero, taom – xalq madaniyati, tarixi, ijtimoiy jarayonlar haqida haqqoniy axborot bera oladigan muhim omillardan biri.

Taomni tadqiq etish yoki “taomshunoslik” (food studies) ijtimoiy fanlar (antropologiya, sotsiologiya, tarix, madaniyatshunoslik) hamda san’at negizida shakllandi. Bu fan adabiyot, gastronomiya va kulinar tarix kabilarni o‘z ichiga oladi. Taomshunoslik ovqatga aloqador jarayonlarni: mahsulot chiqarishdan tortib, ovqatlanish jarayonining ijtimoiy hayotdagi o‘rni tahlili, ovqatlanish odat va

marosimlari, tanovul uchun tanlanadigan hamrohlar (ijtimoiy tabaqalanish tahlili uchun) ni qamrab oladi. Bu jarayonni o‘rganish esa insonning jamiyatdagi o‘rni va milliy madaniyatning o‘ziga xosligini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Eski o’zbek tilining boyligi va jozibasi, unga xos keng imkoniyatlarning, ayniqsa Alisher Navoiy ijodi misolida yaqqol ro’yobga chiqishi tilshunoslarni adib adib merosining til xususiyatlarini tadqiq etishga undab kelmoqda. Tarixiy badiiy manbalar leksikasini o‘rganish yozma asarlar yaratilgan davr adabiy tiliga xos xususiyatlar, lug’aviy sath taraqqiyoti, leksik birliklar semantikasini yoritishda ahamiyatlidir.

Oziq ovqatlar insom turmushida eng muhim o’rin tutadi. Insonlarning jamiyatdagio’rni, turmush darajasi, moddiy-ma’naviy dunyosining ko’zgusi sifatida namoyon bo’ladigan taom nomlari tarixi va manbalarini, ularning etimologiyasi, semantic tarkibinitadqiq qilish tilshunoslikning qiziqarli va dolzarb masalalardandir. Navoiy asarlaridagi taom nomlarini leksik-semantik,tarixiy-etimologik, yasalishi va qo’llanish xususiyatlarini o‘rganish turkey tillar, jumladan, o’zbek tili tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Har bir til lug’at tarkibining boyib borishi tilning ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tildan so’z o’zlashtirish orqali amalga oshadi. Mamlakatlar va xalqlar o’rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlarning yaxshilanishi, ayniqsa, bir-biriga qo’shni xalqlarning o’zaro aloqalari natijasida yangi g’oyalar, fikrlar, tushunchalar qabul qilinadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning o‘ziga xos taraqqiy etishiga, til lug’at tarkibining boyishiga olib keladi. Navoiy asarlari tilida taom nomlari leksikasining tarixiy shakllanishi va rivojlanish jarayonini aniqlash uchun ularni tarixiy-etimologik, genealogic jihatdan o‘rganish, semantic xususiyatlarni yoritish zarur. Navoiy asarlarida o’z qatlam taom nomlari ustunlik qiladi. Ayniqsa fors-tojik,arab va boshqa tillardan o’zlashgan taom nomlari ham ko’p. Negaki, Navoiy asarlari tilida ma’lum tarixiy sabablar natijasida arab va fors-tojik tillaridan olingan so’z va iboralar ko’p. Shoir poetic, nasriy va ilmiy asarlari tilidagi so’z boyligining taxminan 30-33% arab tilidan kirgan so’zlar tashkil qiladi,fors-tojik leksik unsurlari ham 18-20 % gacha boradi. Darhaqiqat, insoniyat taraqqiy etar ekan, azaldan yegulik topish hayotiy muammolardan bo‘lgan. Har bir mumtoz asarni bir yoki bir necha qismat tarixi deb hisoblasak, unda hikoya qilinayotgan tarixiy davr taom bilan bog‘liq qanchadan-qancha hodisalardan tarkib topganligini tasavvur qilish qiyin emas. Badiiy asarda uchrovchi “taom” kontseptini tushunishning murakkab tomonlari ham mavjud. Amerikalik olimlar Devid va K.Jonatanlarning ta’kidlashicha, ovqat va unga tegishli an’analari, jamiki narsa va hodisalar turli yozuvchilar ongida turli asotsiatsiyani paydo qiladi. Taom faqat maza va hid bilan emas, balki boshqa jihatlari orqali ham his etiladi. Ovqat haqidagi tasavvurlar adabiyotda biror millat xotirasining negizigacha singib ketgan assotsiatsiyalar manbasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin (*David, Jonathan*

C. Food in Literature. Gale Encyclopedia of Food&Culture.2003). Yozuvchi ongidagi o‘z millatiga xos assotsiatsiyalar taomning hidi va unga xos bo‘lgan xususiyatlar bitta shu ovqat yoki ozuqa nomini keltirish bilan ham hosil qilinadi. Ammo adabiyotshunos yoki tarjimon uchun mazkur pragmatik ta’sirchanlik – maza, ta’m va u bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni anglab yetish uchun fon bilimlari zarur bo‘ladi. Fon bilimlari xalq madaniyati, tarixi va urf-odatlarini o‘z ichiga olgan kontseptual bilimlar majmuidir. O‘zbek olimlaridan professor Shuhrat Sirojiddinov mazkur istilohni ma’noviy bilimlar deb atashni taklif etadi. (*Sh. Sirojiddinov. Badiiy tarjima asoslari. 2011*) Darhaqiqat, ma’noviy bilimlar bir millatning ijtimoiy ongida ko‘p asrlar davomida shakllangan ma’no va tushunchalar yig‘indisini tashkil etib, badiiy asar matnida tabiiy holatda verballashadi. Misol sifatida “Oshqovoq somsa! Oshqovoq somsa! Kambag‘allik qursin ilohim!” (Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”) jumlasini olaylik. Agar bu gap ingliz tiliga tarjima qilinadigan bo‘lsa, avvalo, o‘zbek xalqi tabiatida go‘shtli taomlarni sevib iste’mol qilish, uyida go‘sht bo‘lishi to‘kinlik va to‘qlik nishonasi ekanligi haqidagi ekstralengistik ma’lumotga ehtiyoj tug‘iladi. Shuningdek, uyda go‘sht bo‘lmaganda, kartoshka yoki qovoq solib somsa qilinishi, qovoq somsaning o‘zbek xalqi orasida, odatta, kambag‘albop pishiriq ekanligini izohda berib o‘tish lozim bo‘ladi. Sababi, cho‘ntagi ko‘tarsa-da, sabzavot solingan ovqat va pishiriqlarni xush ko‘radigan yevropaliklar uchun qovoq somsa “kambag‘allar taomi” emas, balki ijtimoiy mavqeい balandroq qatlami vakillari iste’mol qiladigan shirinlik, ya’ni desert hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, dunyo kitobxonlari tomonidan sevib o‘qilayotgan taom va tanovul mavzusi, inson ruhiyati va ichki dunyosini badiiy tasvirlashning o‘ziga xos uslubi sifatida alohida o‘rin tutadi. Bu mavzu tadqiqi xalqlar o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqot o‘xshashliklari va farqlarni anglash, gastronomik olam manzarasini tushunish, inson psixologiyasini chuqurroq anglash, jahonda yuz berayotgan adabiy tendentsiyalardan boxabar bo‘lish imkonini beradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Aliyev A. O’zbek adabiy tili tarixidan materiallar. ToshDU,1983-64 bet.
2. Abdullayev F. xv asr o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari masalasi//Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. 1968-257 bet.
3. Alisher Navoiy 20 jildlik. 4-jild. Fan, 1989. 526 bet
4. Artikbayeva S. Значение традиционной пищи в развитии узбеко-казахских этнокультурных взаимоотношений в Ташкентском оазисе. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси, 65-bet.
5. Dadaboyev H. “ Devoni lug’oti turning “ til xususiyatlari. 2017.-132 bet.